



AMIR TEMURNING HINDISTONGA HARBIY YURISHI

Halimova Durдона Farhodovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tarix fakulteti 1-bosqich talabasi halimovadurdona20@gmail.com

Annotatsiya: AMIR TEMURNING 1398 – 1399- YILLARDAGI HINDISTON YURISHI TEMURIYLAR SALTANATI TARIXIDAGI ENG YIRIK HARBIY OPERATSIYALARDAN BIRI SANALADI. MAZKUR MAQOLADA SOHIBQIRONNING JANUBIY YO'NALISHDAGI STRATEGIK MAQSADLARI, DEHLI SULTONLIGIDAGI INQIROZLI VAZIYAT VA TEMURNING JANG MAYDONIDAGI TAKTIK YANGILIKLARI TAHLIL QILINADI. USHBU G'ALABA NAFAQAT MARKAZIY OSIYO , BALKI BUTUN HINDISTON YARIMOROLINING KELGUSI TAQDIRINI BELGILAB BERUVCHI MUHIM BURILISH NUQTASI BO'LDI.

Kalit so'zlar: AMIR TEMUR, DEHLI SULTONLIGI, ANDAROB, SULTON MAHMUD, MALLUXON, QO'SHIN TUZILISHI, HARBIY STRATEGIYA.

Аннотация: Индийский поход Амира Темура в 1398–1399 годах считается одной из крупнейших военных операций в истории государства Тимуридов. В данной статье анализируются стратегические цели Сахибкирана в южном направлении, кризисная ситуация в Делийском султанате и тактические новшества Темура на поле боя. Эта победа стала важным поворотным моментом, определившим дальнейшую судьбу не только Центральной Азии, но и всего Индийского субконтинента.

Ключевые слова: Амир Темура, Делийский султанат, Андароб, Султан Махмуд, Маллу-хан, структура войска, военная стратегия.

Annotation: The Indian campaign of Amir Temur in 1398–1399 is considered one of the largest military operations in the history of the Timurid Empire. This article analyzes the Sahibkiran's strategic objectives in the southern direction, the crisis situation in the Delhi Sultanate, and Temur's tactical innovations on the battlefield. This victory became a significant turning point that shaped the future destiny of not only Central Asia but the entire Indian subcontinent.

Keywords: Amir Temur , Delhi Sultanate, Andarab, Sultan Mahmud, Mallu Khan, army structure, military strategy.

XIV asr oxirida Amir Temur asos solgan saltanat nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon siyosiy xaritasini o'zgartirib yubordi. Sohibqironning harbiy yurishlari shunchaki fathlar emas, balki yuksak intizom, mukammal razvedka va strategik zakovat mahsuli edi. Amir Temurning har bir yurishi muayyan siyosiy yoki ma'naviy maqsadga xizmat qilgan. Uning 1398-yildagi Hindiston safari saltanat tarixidagi eng muhim yurishlardan biri hisoblanadi. Bu yurish kutilmagan harbiy taktikalar va tabiat to'siqlarini yengish borasida Temuriy askarlarning nimalarga qodir ekanini butun dunyoga ko'rsatib berdi.



Amir Temurning Hindiston yurishi tasodifiy qaror emas, balki chuqur o'ylangan strategik reja edi. 1397-yilning kuzida (799-hijriy yil) Sohibqiron poytaxt Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesida muazzam “ Dilkusho “ bog'ini va hashamatli qasrni bunyod ettirdi. Bu bunyodkorlik ishlari saltanat poytaxtida barqarorlikni ta'minlashning o'ziga xos ramzi edi. Yurish oldidan Amir Temur ma'naviy quvvat olish maqsadida Turkistonga, Shayx Ahmad Yassaviy maqbarasiga ziyoratga bordi. U yerda ulug'vor imoratlar tiklashni buyurib, so'ngra Toshkent va Xo'jand orqali Samarqandga qaytib, o'g'li Shohruh Mirzo va boshqa shahzodalar bilan Hindiston fathi masalasini kengash qildi.

TARIXIY MANBALARDA HINDISTON YURISHINING IKKI ASOSIY SABABI KO'RSATILADI:

BIRINCHI SABAB BU DEHLI SULTONLIGIDAGI INQIROZLI VAZIYAT EDI. O'SHA DAVRDA HINDISTON DEHLI SULTONLIGI QO'L OSTIDA EDI. SULTON FIRUZSHOH VAFOTIDAN SO'NG, UNING O'RNIGA TAXTGA CHIQUADIGAN O'G'LI YO'Q BO'LIB, MAMLAKATDA TAXT UCHUN KURASHUVLAR AVJ OLIB KETDI. UNING NABIRASI SULTON MAHMUD TAXTGA CHIQQAN BO'LSADA, AMALDA HOKIMIYAT VAZIR MALLUXON QO'LIGA O'TIB QOLGAN EDI. UNING O'Z AKASI MO'LTON SHAHRI HOKIMI SARANGXON BILAN KELISHMOVCHILIKLARI XALQNING PAROKANDANLIGIGA OLIB KELDI. ICHKI NIZOLAR AVJ OLIB, HIND XALQI TURLI GURUH VA TOIFALARGA BO'LINIB KETDI. BU TARTIBSIZLIK SARANGXON SABAB HINDISTON CHEGARALARI HIMOYASIZ QOLDI. NATIJADA, ULAR ORASIDAGI IXTILOF TEMUR UCHUN QULAY VAZIYATNI YARATIB BERDI.

DUSHMANLAR FIKRLARINING TARQOQLIGI,

DO'STLAR XOTIRLARINING JAM BO'LISHIGA SABABDIR.²⁹

HINDISTONGA YURISHNING KEYINGI SABABI SIFATIDA TEMUR NABIRASI PIRMUHAMMAD JAHONGIRNING ARZI KO'RSATILADI. SOHIBQIRON AMIR TEMUR DASTLAB QUNDUZ, BAG'LON, QOBUL, G'AZNI VA QANDAHOR KABI MUHIM HUDUDLARNI NABIRASI PIRMUHAMMAD JAHONGIR BOSHQARUVIGA BERGAN EDI. SHAHZODA PIRMUHAMMAD SIND (HIND) DARYOSIDAN O'TIB, MO'LTON SHAHRINI QAMAL QILADI. BIROQ, MO'LTON SHAHRI HOKIMI SARANGXON QATTIQ QARSHILIK KO'RSATADI VA QAMAL CHO'ZILIB KETADI. SHU SABAB SHAHZODA BOBOSIDAN YORDAM SO'RAYDI.

AMIR TEMUR O'ZI ASLIDA XITOIY KOFIRLARI USTIGA YURISHNI NIYAT QILIB YURGAN EDI. BIROQ AMIRLAR YIG'ILIB: “ HINDISTONNING BA'ZI SHAHARLARIDA ISLOM AHLI BO'LSADA, KO'P JOYLARIDA KOFIR VA BUDPARASTLAR HUKMRONLIK QILIB, MUSULMONLARGA ZULM O'TKAZMOQDA “³⁰ DEB ARZ QILISHGACH, SOHIBQIRON G'AZOT NIYATI BILAN HINDISTON TOMON YO'L OLISHGA QAROR QILDI.

SOHIBQIRON HINDISTONNI FATH ETISH NIYATI BILAN POYTAHT SAMARQANDDA O'ZINING BARCHA AMIRLARI, NOIBLARI VA HARBIY SARKARDALARINI TO'PLAB, KENGASH O'TKAZDI. KENGASHDA QO'SHINNING BO'LINISHI VA HARAKAT REJASI TUZIB CHIQILDI. UNGA KO'RA QO'SHIN BIR NECHA QISMLARGA BO'LINIB, HAR BIRIGA ALOHIDA VAZIFA YUKLATILDI.

²⁹ Ibn Arabshoh – “Amir Temur tarixi” – “Fan” nashriyoti – Toshkent -2019, B - 178

³⁰ Sharafiddin Ali Yazdiy – “Zafarnoma” – “Sharq” nashriyoti - Tohskent – 1997, B - 191



1. O'NG QANOT (BARONG'OR): BU QISMGA NABIRASI PIRMUHAMMAD JAHONGIR BOSHLIQ ETIB TAYINLANDI. UNGA SIND DARYOSIDAN O'TIB, MO'LTON VA UNING ATROFIDAGI VILOYATLARNI EGALLASH, SO'NGRA ASOSIY QO'SHIN BILAN BIRLASHISH VAZIFASI YUKLATILDI.

2. CHAP QANOT (JUVONG'OR): BU QISMGA BOSHQA TAJRIBALI SHAHZODALAR VA AMIRLAR RAHBARLIK QILIB, ULAR TOG'LI HUDUDLAR VA CHEKKA VILOYATLAR ORQALI DUSHMAN KUCHLARINI CHALG'ITIB BORISHI BELGILANDI.

3. MARKAZ (G'UL): SOHIBQIRONNING O'ZI BOSHCHILIGIDAGI ASOSIY ZARBDOR KUCHLAR ENG QISQA VA QULAY YO'LLAR ORQALI BEVOSITA DEHLI SARI HARAKATLANISHI QAROR QILINDI.

1398-YIL MART OYLARI BOSHIDA YULDUZLAR MUVOFIQ KELGAN BIR PAYTDA AMIR TEMUR SAMARQANDNI BOSHQARISHNI NABIRASI UMAR MIRZOGA TOPSHIRIB, HAYBATLI QO'SHIN VA DABDABA BILAN SAFARGA OTLANDI. AMIR TEMUR DASTAVVAL KESH SHAHRIGA BORIB, BU YERDA O'Z AJDODLARINING QABRLARINI ZIYORAT QILDI, XAYR – EHSONLAR TARQATDI VA ILOHIY MADAD SO'RAB DUO QILDI. SHUNDAN SO'NG, SOHIBQIRON TERMIZ VILOYATIGA YETIB KELIB, XULM DARYOSIDAN O'TDI, SO'NG G'AZNI VA SAMANGON YO'LLARI ORQALI HARAKATLANDI. BAG'LONG DOVONLARIDAN OSHIB O'TIB, ANDAROB SHAHRIGA YETIB KELDI VA U YERDA TO'XTADI. ANDAROBDA MAHALLIY AHOLI KATUR VA "SIYOHPO'SH" (QORA KIYIMLI) KOFIRLARI HAR YILI ULARDAN SOLIQ TALAB QILAYOTGANI, AKS HOLDA AYOL VA BOLALARINI ASIRGA OLIB, ERKAKLARNI O'LDIRAYOTGANI HAQIDA SHIKOYAT QILDILAR.³¹ AMIR TEMUR BU KOFIRLARNI JAZOLASHNI O'ZINING BIRINCHI VAZIFASI DEB BILDI: U QO'SHINNING HAR O'N KISHIDAN UCHTA ENG SARALANGAN YIGITNI OLIB, TOG'LAR SARI OTLANDI. KATUR HUDUDI NIHOYATDA BALAND TOG'LAR BILAN O'RALGAN BO'LIB, TEPADA QALIN QOR VA MUZLIKLAR BOR EDI. ASKARLAR MUZ USTIDA OTLARNI O'TKAZISH UCHUN KIYIZ VA GILAMLARNI YO'LGA TO'SHADILAR. TIK QOYALARDAN O'TISH UCHUN ESA MAXSUS USUL QO'LLANDI : ASKARLAR VA OTLARNI ARQONLAR BILAN BO'G'LAB PASTGA TUSHIRDILAR. SOHIBQIRON UCHUN MAXSUS ARQONLI MOSLAMA YASALDI: U BIR NECHA BOSQICHDA, HAR SAFAR 150 QARI (TAXMINAN 110 METR) CHUQURLIKKA ARQON BILAN TUSHIRILDI. SHU TARIQA, JAHON TARIXIDA KAM KUZATILADIGAN MUHANDISLIK VA IRODA KUCHI BILAN HINDUKUSH DOVONLARI ZABT ETILDI. AMIR TEMUR KOFIRLARNING TOG' ICHIDAGI QAL'ALARINI ZABT ETDI VA ULARGA ISLOMNI QABUL QILISHNI TAKLIF QILDI. BO'YSUNMAGANLAR JAZOLANDI, BO'YSUNGANLARGA ESA SHAFQAT KO'RSATILIB, HUDUDDA TARTIB O'RNATILDI. KATUR FATHI YAKUNLANGACH, SOHIBQIRON QOBUL TOMON YO'L OLADI. U PANJSHER DARYOSI VA HINDIKUSH TOG'LARI ORQALI HARAKATLANIB, HINDISTON SARI YURISHNI DAVOM ETTIRISHGA TAYYORGARLIK KO'RADI.

1398-YIL 24-SENTABR KUNI SOHIBQIRON SIND DARYOSIDAN O'TDI. DARYODAN O'TISH UCHUN QAYIQLAR VA MAXSUS MOSLAMALARDAN FOYDALANIB, KO'PRIK QURDILAR. DARYODAN O'TGACH, QO'SHIN JARO (JALOLIY) CHO'LIGA YETIB KELDI. RIVOYAT QILINISHICHA, BU CHO'L ORQALI JALOLIDDIN MANGUBERDI CHINGIZXON TA'QIBIDAN QOCHIB O'TGAN EDI. SOHIBQIRON BU CHO'LNING MARKAZIDA JOYLASHGAN, HATTO HINDISTON PODSHOHLARIDAN BIRORTASINING QO'SHINI YETIB BORMAGAN MUSTAHKAM BATNIR QAL'ASINI EGALLADI. BATNIR QAL'ASIDAN SO'NG AMIR TEMUR QO'SHINLARI SARASATI VA FATHOBOD SINGARI YIRIK SHAHARLARNI EGALLADI. AMIR TEMUR HINDISTON YURISHI DAVOMIDA NAFAQAT YIRIK SHAHARLARNI

³¹ Sharafiddin Ali Yazdiy – "Zafarnoma" – "Sharq" nashriyoti – Toshkent – 1997, B - 192



EGALLADI, BALKI YO'LLARDAGI QAROQCHI VA ISYONCHI QABILALARNI JAZOLAB, HUDUDDA TO'LA XAVFSIZLIK VA TARTIB O'RNATDI. BU YURISHLAR DAVOMIDA QO'SHIN O'ZI UCHUN DEHLI TOMON YO'L OCHIB BORAYOTGAN EDI. VANIHOYAT, 1398-YIL 15-DEKABRDA SOHIBQIRON JUMNA DARYOSIDAN O'TIB QARORGOHINI O'RNATDI. 17-DEKABR KUNI BARCHA SHAHZODALAR VA BEKLAR BILAN BIRGA DEHLI QO'SHINI TOMON SAF TORTDI. BU JANG TARIXDA HAL QILUVCHI JANG SIFATIDA QOLDI. AMIR TEMUR O'Z QO'SHINLARI HAQIDA "TEMUR TUZUKLARIDA" SHUNDAY DEYDI: "HINDISTON YURISHIGA JAMLANGAN QO'SHINLARIM UMUMIY SONI TO'QSON IKKI MING OTLIQQA YETGAN EDI. BU ESA ALLOHNING YERDAGI ELCHISI MUHAMMAD SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAM, ISMI SHARIFLARI SONIGA TO'G'RI KELGANLIGI UCHUN, BU XAYRLI VA MUBORAK FOLLARI SIRASIGA KIRITDIM".³² QO'SHIN DEHLI ATROFIDA QARORGOH QURIB, QO'QISDAN BO'LADIGAN HUJUMLARNI OLDINI OLIH UCHUN XAVFSIZLIK CHORALARINI KO'RA BOSHLAGAN. ULAR XANDAQLAR QAZISHGAN, QOZIQLARDAN TO'SIQ YASAB, QALQONLAR JOYLASHTIRIB UNING ORTIGA O'Z CHODIRINI QURGAN.

DEHLI TOMONDAN SULTON MAHMUD VA MALLUXON 10 MING OTLIQ, 40 MING PIYODA VA ENG ASOSIYSI, 120 TA ULKAN JANGOVAR FIL BILAN CHIQAIDILAR.³³ FILLAR USTIGA "KAJAVALAR" – MINORALAR O'RNATIGAN BO'LIB, ICHIDA MERGANLAR JOYLAHGAN EDI. FILLARNING O'ZI ESA ZIRHLAR BILAN QOPLANGAN, XARTUMLARIGA ZAHARLI QILICH VA XANJARLAR BOG'LANGAN EDI. SHARAFIDDIN ALI YAZDIYNING "ZAFARNOMA" ASARIDA YOZILISHICHA, FILLARNING HAYBATI VA DAHSHATIDAN HATTO SOHIBQIRONING BA'ZI OLIM VA FOZIL KISHILARI VAHIMAGA TUSHIB, XOTINLAR BILAN BIRGA O'TIRISHNI AFZAL KO'RADI.³⁴ FILLARNING HUJUMIDAN SAQLANISH VA ULARNI TO'XTATISH UCHUN AMIR TEMUR QUYIDAGI CHORALARNI QO'LLAYDI: QARORGOH ATROFIDA CHUQUR XANDAQ QAZILADI. XANDAQ BO'YLAB YOG'OCH VA QAMISHLARDAN DEVOR YASALADI, ULAR BIR-BIRIGA BO'G'LAB MUSTAHKAMLANADI. FILLARNING OYOQLARIGA SHIKAST YETKAZISH UCHUN "TEMUR TIKANLARI" DEB ATALUVCHI UCH SHOXLI TEMIR TIKANLAR YO'LLARGA SOCHILADI. FILLARNING HAYBATINI QAYTARISH UCHUN YUZLAB GOMUSHLAR (BUQALAR) XANDAQ CHETIGA TO'PLAB QO'YILADI.

JANG BOSHLANISHI BILAN AMIRZODA RUSTAM, SHAYX NURIDDIN VA SHOH MALIK BOSHCHILIGIDAGI BAHODIRLAR FILLARNING XARTUMLARIGA QILICH URIB, ULARNI JAROHATLAYDILAR. FILLARNING USTIDAGI "KAJAVA" LARDA O'TIRGAN MERGANLAR VA FILBONLAR BIRIN-KETIN YO'Q QILINADI. HAYBATLI FILLAR O'ZLARIGA BERILGAN ZARBALARDAN KEYIN QUTURIB, ORQAGA – O'Z ASKARLARI TOMONGA QOCHA BOSHLAYDI. BU HOLAT DEHLI SULTONI QO'SHINIDA KATTA TARTIBSIZLIK KELITIRIB CHIQAIRADI. HIND QO'SHINI BUTUNLAY TOR-MOR ETILDI. SULTON MAHMUD VA VAZIR MALLUXON JANG MAYDONIDAN QOCHIB, DEHLI SHAHRI ICHIGA YASHIRINISHDI VA SHAHAR DARVOZALARINI MUSTAHKAM OLDILAR. SOHIBQIRONNING NEVARASI XALIL SULTON BITTA FILNI HAYDOVCHISI BILAN BIRGA ASIR OLIB, SOHIBQIRON HUZURIGA KELITIRDI. BU G'ALABANING RAMZI EDI. SHAHAR ULAMOLARI VA SAYYIDLARI CHIQIB, SOHIBQIRONDAN XALQ UCHUN OMONLIK SO'RAYDILAR. AMIR TEMUR O'ZINING ADOLATLI VA RAHMIDIL EKANINI KO'RSATIB, ULAMOLAR VA SAYYIDLAR SO'ZINI QABUL QILADI.

³² Temur tuzuklari. "G'afur G'ulom" – Toshkent – 1991. B – 47.

³³ Ivanin M. "Ikki buyuk sarkarda : Chingizxon va Amir Temur". Akmaljon Mahmudov tarjimasini. "Fan" nashriyoti – Toshkent – 1994. B – 182.

³⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" – "Sharq" nashriyoti – Toshkent – 1997. B – 206



MALLUXON VA SULTON AHMAD MAG'LUBIYATDAN SO'NG SHAHARDA QOLISH XAVFLI EKANINI ANGLAB, YARIM TUNDA TURLI DARVOZALARDAN QOCHIB CHIQUADILAR. 1398-YIL 19-DEKABR KUNI AMIR TEMUR TANTANALI RAVISHDA DEHLI POYTAXTIGA KIRADI. 20-DEKABR KUNI DEHLI JOME MASJIDIDA AMIR TEMUR NOMIGA XUTBA O'QILADI, VILOYATLARGA SOHIBQIRON POYTAXTNI ZABT ETGANINI MA'LUM QILIB FATHNOMALAR YUBORILDI. SHU TARIQA HINDISTON YURISHI SOHIBQIRON G'ALABASI BILAN YAKUNLANDI. SOHIBQIRON DEHLIDAGI MOHIR HUNARMAND VA TOSH YO'NUVCHILARNI SHAHZODA VA BEKLARGA TAQSIMLAB BERISHNI BUYURADI. AMIR TEMURNING NIYATI BU MOHIR USTALARNI SAMARQANDGA OLIB BORIB, HOZIRGI BIBIXONIM JOME MASJIDINI QURISHDA FOYDALANISH EDI. AMIR TEMUR DEHLIDA JAMI 15 KUN TURIB, XIZRXON IBN MALIK SULAYMONNI O'Z NOIBI VA HOKIMI QILIB TAYINLAB, 1399-YIL 1- YANVARDA SHAHARNI TARK ETDI. URUSH NATIJASIDA KO'PLAB BOYLIK, OLTIN VA KUMUSHLAR TEMURIYLAR DAVLAT XAZINASIGA KELIB TUSHGAN. UMUMAN OLGANDA AMIR TEMURNING HINDISTON YURISHI UNING HARBIY QUDRATINI NAMOYON QILDI VA USHBU HUDUDDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'ZGARTIRISHGA YORDAM BERDI. USHBU YURISH NATIJASIDA HINDISTONGA BORADIGAN SAVDO YO'LLARINING XAVFSIZLIGI TO'LA TA'MINLANGAN VA YO'LLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH UCHUN QAL'A VA SHAHARLAR QURILGAN. DEHLI SULTONLIGI HAM AMIR TEMUR DAVLATI TARKIBIGA QO'SHIB OLINGAN.

XULOSA QILIB AYTISH JOIZKI, Amir Temurning Hindiston yurishi nafaqat yirik hududlarni zabt etish, balki harbiy strategiya, muhandislik salohiyati va madaniy yuksalishning o'zaro uyg'unlashgan cho'qqisi bo'ldi. Sohibqironning murakkab geografik to'siqlarni yengib o'tishi, dushmanning jangovar fillariga qarshi innovatsion usullarni qo'llashi va zabt etilgan hududlarda qat'iy intizom hamda xavfsizlik o'rnatishi uning naqadar buyuk sarkarda va davlat arbobi ekanini isbotladi. Dehlidan Samarqandga olib kelingan mohir hunarmandlar saltanat poytaxtining me'moriy qiyofasini butunlay o'zgartirib, boqiy obidalar yaratilishiga zamin yaratdi; bu yurish natijasida o'rnatilgan adolatli tartiblar esa mintaqa tarixida uzoq vaqt barqarorlik va madaniy o'sish davrini boshlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SHARAFIDDIN ALI YAZDIY, "ZAFARNOMA", "SHARQ", TOSHKENT – 1997
2. IBN ARABSHOH, "AMIR TEMUR TARIXI", "FAN" NASHRIYOTI, TOSHKENT – 2019
3. TEMUR TUZUKLARI. "G'AFUR G'ULOM", TOSHKENT – 1991
4. IVANIN M. " IKKI BUYUK SARKARDA : CHINGIZXON VA AMIR TEMUR". AKMALJON MAHKAMOV TARJIMASI. " FAN ". TOSHKENT -1994
5. HAMIDULLA DADABOYEV " AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI " , "YOZUVCHI" NASHRIYOTI, TOSHKENT - 1996
6. Safarovich, S. S., & Odiljonovich, I. F. (2020). Symbiosis of civilizations as an important factor in the formation and development of scientific thinking in Uzbekistan. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 1-12.



7. Odiljonovich, I. F. (2022). The Role Of Art Exhibitions In The Development Of Cultural Relations Between Uzbekistan And The European Union. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1522-1524.